

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



No240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS



2025-YIL
APREL
№ 4-SON



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 30 APREL, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echlamlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazolimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabel Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA “IQTISODIYOT” YO‘NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI	56
Saidov Mash’al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА.....	63
Гольшева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURSLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRAUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turorov Maqsudjon Asatillo o’g’li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o’g’li	
O‘ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO‘SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O‘ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN‘IY INTELLEKTNI ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”)	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSIYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtojev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO‘RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA‘SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUVLARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO‘JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O‘tkirbek Tilovmurod o‘g‘li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN‘IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro‘ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur‘atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoza Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdusalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishining nazariy hamda metodologik jihatlarini tizimli yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi ehtiyojlarini muvozanatli qondirish hamda hududlararo nomutanosibliklarni yumshatishda mintaqaviy oziq-ovqat bozorining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Maqolada iqtisodiy fanlar doirasida ushbu bozorlarga oid mavjud nazariy yondashuvlar o'rganilib, ularning mintaqaviy xususiyatlar kontekstida qayta talqin qilinadi. Xorijiy tajribalar, klassik va zamonaviy ilmiy maktablarning qarashlari asosida mintaqaviy oziq-ovqat bozorini baholash mezonlari aniqlanadi. Shuningdek, maqolada tizimli tahlil asosida metodologik yondashuvlar taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat xavfsizligi, hududiy nomutanosiblik, bozor shakllanishi, iqtisodiy mexanizm, metodologik yondashuvlar, davlat tartibga soluvi, klasterlash.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и методологические аспекты формирования и развития регионального продовольственного рынка на основе системного подхода. В условиях рыночной экономики возрастает значение регионального продовольственного рынка в обеспечении продовольственной безопасности, сбалансированном удовлетворении потребностей населения и смягчении межрегиональных диспропорций. В статье рассматриваются существующие теоретические подходы к этим рынкам в рамках экономических наук и дается их переосмысление в контексте их региональных особенностей. На основе зарубежного опыта и взглядов классических и современных школ определены критерии оценки регионального продовольственного рынка. В статье также предлагаются методологические подходы, основанные на системном анализе.

Ключевые слова: региональный продовольственный рынок, продовольственная безопасность, территориальная несбалансированность, формирование рынка, экономический механизм, методические подходы, государственное регулирование, кластеризация.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological aspects of the formation and development of the regional food market based on a systematic approach. In a market economy, the importance of the regional food market in ensuring food security, balanced satisfaction of the needs of the population, and smoothing out interregional imbalances is increasing. The article studies existing theoretical approaches to these markets within the framework of economic sciences and reinterprets them in the context of their regional characteristics. Based on foreign experience, the views of

classical and modern schools, the criteria for assessing the regional food market are determined. The article also proposes methodological approaches based on a systematic analysis.

Keywords: regional food market, food security, territorial imbalance, market formation, economic mechanism, methodological approaches, state regulation, clustering.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanadi. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy barqarorligi va aholining hayot darajasi bevosita oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab va uning qondirilish darajasiga bog'liqdir. Ayniqsa, hududlar kesimida oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi, bu boradagi iqtisodiy, institutsional va infratuzilmaviy muammolarning mavjudligi masalaning nazariy va amaliy ahamiyatini chuqur tadqiq qilishni talab etadi.

O'zbekistonda agrar islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr PF-6096-son "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni tasdiqlangan. Ushbu hujjatda aholining to'laqonli ovqatlanish huquqini ta'minlash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, logistika zanjirini rivojlantirish va ichki bozorda muvozanatli narx siyosatini yuritish masalalari belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-noyabr PQ-5263-son "Oziq-ovqat sanoatini 2022–2026-yillarda rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" Qarori bilan tasdiqlangan. Unda mintaqaviy oziq-ovqat tarmoqlari, klasterlash asosidagi ishlab chiqarish tizimlari va raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar mintaqaviy darajada oziq-ovqat bozorining shakllanishini ilmiy asoslash masalasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, Namangan viloyatida aholining zich joylashuvi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yer resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish va iste'mol zanjirlaridagi nomutanosibliklar, logistika infratuzilmasining past darajada rivojlanganligi mintaqaviy oziq-ovqat bozorining tizimli va chuqur ilmiy tahlilini talab etadi. Bu holat, o'z navbatida, bozorning nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish, mavjud metodologiyalarni takomillashtirish va mintaqaviy sharoitga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli, ushbu maqolada mintaqaviy oziq-ovqat bozorining shakllanish jarayoni, unga ta'sir etuvchi omillar tizimi, davlat siyosatining roli hamda ilmiy-metodik yondashuvlarning takomillashuvi chuqur o'rganiladi. Bu boradagi nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, mintaqalarda oziq-ovqat bozorining

barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi masalasi iqtisodiyot fanining tarmoqli yo'nalishlarida – agrar iqtisodiyot, regionalistika, oziq-ovqat xavfsizligi va bozor nazariyasi doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, ushbu mavzu hanuzgacha murakkab va ko'p komponentli masala bo'lib qolmoqda.

Dastlabki tadqiqotlar klassik iqtisodiy nazariyalarda bozorlar faqat talab va taklif asosida shakllanishini ta'kidlaydi. Masalan, A. Smit va D. Rikardoning qarashlarida erkin bozor qonunlari ta'sirida resurslar optimal taqsimlanadi va oziq-ovqat ta'minoti avtomatik muvozanatga keladi [1]. Biroq bu yondashuv hududiy farqlarni va resurslar tengsizligini hisobga olmaydi.

Oziq-ovqat bozorining hududiy jihatdan shakllanishini ilmiy asoslashga qaratilgan tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaygan. Mintaqaviy iqtisodiyot maktabi namoyandalari – W. Isard [2], J. Friedman [3] – hududiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish va iste'mol markazlari o'rtasidagi logistik zanjirlar ahamiyatini urg'ulaydi.

Markaziy Osiyo va, xususan, O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozorining shakllanishida iqlimiy, demografik, agrotexnik va logistik omillarning roliga e'tibor qaratiladi. O'zbekistonlik olimlar A. Vahobov [4], Sh. Qudratov [5], Z. Tashkenbaeva [6] kabi tadqiqotchilar ushbu masalaga milliy kontekstda yondashib, hududlar kesimida oziq-ovqat xavfsizligi va bozor tizimini modellashtirishni taklif qiladilar.

Xalqaro tajribalarda esa oziq-ovqat xavfsizligi faqat ishlab chiqarish bilan emas, balki saqlash, yetkazib berish, raqamli monitoring, iste'mol madaniyati bilan bog'lanadi. Masalan, FAO 2023-yilgi hisobotlarida barqaror oziq-ovqat tizimlari rivoji uchun klaster yondashuvi, agrotexnologiyalar va davlat-sheriklik modellari asosiy mexanizmlar sifatida ko'riladi [7].

Yana bir muhim yondashuv – institutsional nazariya – oziq-ovqat bozorining shakllanishida hukumat siyosati, mulkchilik munosabatlari va kooperatsiya mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi (N. North [8], D. Rodrik [9]). Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlatning strategik boshqaruvdagi roli hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, yangi zamonaviy adabiyotlarda (C. Barrett, 2021) [10] oziq-ovqat tizimi ko'p darajali bozorlar, ijtimoiy himoya, iqtisodiy barqarorlik, ekologik omillar va infratuzilma bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi va

kichik biznes subyektlarining moliyaviy hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlari, shuningdek ekspert so‘rovlari natijalari keng qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat bozori har qanday iqtisodiy hududning asosiy strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanish darajasi aholi turmush darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi va makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, mintaqaviy kontekstdan kelib chiqib olib boriladigan tahlillar hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va maqsadli strategik choralarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Namangan viloyati O‘zbekistonning aholi zich joylashgan, agrar resurslar bilan ta‘minlangan hududlaridan biri bo‘lib, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oziq-ovqat sektorining roli tobora ortib bormoqda. Aholining tez sur‘atlar bilan o‘sishi, ichki bozor talabining kuchayishi, logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, hududlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish va iste‘moldagi tafovutlar ushbu bozorni tahlil qilishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Namangan viloyatining barcha tumanlari kesimida 2020–2024-yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ichki talab, infratuzilma imkoniyatlari, eksport hajmi va o‘rtacha narxlar kabi asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Tahlillar orqali mintaqaviy nomutanosibliklar aniqlanadi va ushbu holatlarning iqtisodiy sabablari hamda oqibatlarini ilmiy asosda bayon etiladi (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyati tumanlarida 2020–2024-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024
Namangan shahri	105,2	111,3	118,5	125,1	132,6
Chortoq	92,1	97,4	102,9	109,3	115,7
Chust	88,3	92	95,7	100,2	104,9
Kosonsoy	95,5	99,8	104,2	108,5	112,3
Pop	101,4	107,6	113,3	118,9	125
To‘raqo‘rg‘on	87,6	90,5	94,7	98,4	102,6
Uychi	91,2	96,3	101,1	106,7	112,4
Yangiqo‘rg‘on	89	94,2	99,5	104,8	109,2

Manba: Namangan viloyati hokimligi agrar bo‘limining yillik hisobotlari

Namangan viloyatining barcha tumanlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2020–2024-yillar davomida ijobiy dinamikani namoyon etdi. Aholi sonining o‘sishi, ichki talabning kuchayishi hamda davlat tomonidan agrar sohani qo‘llab-quvvatlash kuchaygani asosiy sabablar sirasiga kiradi. Namangan shahri, Pop va Kosonsoy tumanlari yuqori ishlab chiqarish hajmlariga ega bo‘lib, bu tumanlarda agrotexnik tadbirlarning to‘liq joriy etilishi, iqlimiy qulayliklar hamda suv resurslarining nisbatan barqarorligi kuzatiladi. Biroq Chust, To‘raqo‘rg‘on va

Yangiqo'rg'on tumanlarida past o'sish sur'atlari qayd etilib, bu hududlarda ishlab chiqarish resurslari to'liq safarbar qilinmaganini bildiradi (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyati tumanlarida 2024-yildagi oziq-ovqat mahsulotlariga talab

Tumanlar	Guruch	Un	Sabzavotlar	Go'sht	Mevalar
Namangan shahri	18,3	25,6	45,3	22,7	31,2
Chortoq	14,7	21,2	36,7	18,9	26,3
Chust	13,9	20,5	34,9	17,6	25,1
Kosonsoy	15,2	22,1	38	19,1	27
Pop	16,1	23,9	40,2	20,4	28,5
To'raqo'rg'on	14,2	20,8	35,6	17,8	25,7
Uychi	14,6	21,4	37	18,3	26,5
Yangiqo'rg'on	13,5	20,1	34,5	17,1	24,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi

2024-yil uchun olingan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi tumanlar kesimida ancha farqlanadi. Ayniqsa, Namangan shahri va Pop tumanida yuqori talab ko'rsatkichi mavjud bo'lib, bu hududlarda aholi zichligi yuqori, urbanizatsiya jarayonlari faol, aholining daromad darajasi esa boshqa hududlarga nisbatan yuqori. Guruch, un, sabzavot va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talab ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan tumanlarda narxlarning keskin o'sishiga sabab bo'lmoqda (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarini tashish infratuzilmasi (2024)

Tumanlar	Avtomobil yo'llari (km)	Omborxonasi sig'imi (ming tonna)	Sovitkichli transport soni	Logistika markazlari soni
Namangan shahri	426,5	45,2	62	5
Chortoq	312,4	30,4	38	3
Chust	298,1	28,6	35	2
Kosonsoy	340,3	32,1	41	3
Pop	360,9	34,8	44	4
To'raqo'rg'on	295,6	29,7	33	2
Uychi	310,2	31	36	3
Yangiqo'rg'on	289,7	27,5	31	2

Manba: O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari holati bo'yicha 2024-yil statistik ma'lumotnoma" – Avtoyo'llar Qo'mitasi)

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, saqlash va taqsimlash infratuzilmasi tumanlar o'rtasida sezilarli darajada farqlanadi. Bu quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: Namangan shahri va Pop tumanlarida omborxonasi sig'imi, sovitkichli transport vositalari hamda logistika markazlari nisbatan yuqori darajada. Chust, To'raqo'rg'on va Yangiqo'rg'on

tumanlarida esa bu ko'rsatkichlar yetarli emas, natijada oziq-ovqat mahsulotlarining sifati pasaymoqda hamda narxlarning sun'iy oshishiga olib kelmoqda (4-jadval).

4-jadval

Namangan viloyatida 2020–2024-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti (ming AQSh dollari)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024
Namangan shahri	2200	2400	2600	2840	3095
Chortoq	1350	1480	1610	1755	1900
Chust	1240	1305	1380	1465	1550
Kosonsoy	1490	1585	1690	1805	1930
Pop	1580	1690	1805	1930	2075
To'raqo'rg'on	1180	1235	1290	1355	1420
Uychi	1265	1340	1415	1490	1575
Yangiqo'rg'on	1150	1210	1275	1340	1405

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi eksport statistikasi

So'nggi besh yillik davrda eksport hajmlarida ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Bu quyidagi omillar bilan bog'liq: mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport bozorlariga moslashuvi, sertifikatlash jarayonlarining soddalashtirilishi, logistika tizimi va chegara postlarida zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi. Namangan shahri, Pop va Kosonsoy tumanlari eksport hajmi bo'yicha yetakchilik qilmoqda, biroq To'raqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida bu boradagi imkoniyatlar nisbatan cheklangan (5-jadval).

5-jadval

Namangan viloyatida 2024-yildagi oziq-ovqat narxlarining o'rtacha ko'rsatkichi (so'm/kg)

Tumanlar	Guruch	Un	Sabzavotlar	Go'sht	Mevalar
Namangan shahri	10500	4500	3500	65000	8000
Chortoq	10100	4300	3300	62000	7700
Chust	9900	4250	3250	61000	7600
Kosonsoy	10200	4400	3400	63000	7800
Pop	10350	4450	3450	64000	7900
To'raqo'rg'on	9850	4200	3200	60500	7500
Uychi	10000	4300	3300	61500	7600
Yangiqo'rg'on	9800	4150	3150	60000	7400

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – Iste'mol narxlari indeklari (CPI)

Oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha narxlari hududlar bo'yicha farq qiladi. Namangan shahri va Pop tumanida narxlarning yuqoriligi talabning kuchliligi, bozor muvozanatining buzilishi hamda logistik bosim bilan izohlanadi. To'raqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida esa narxlar pastroq, ammo bu holat past iste'mol darajasi va bozor zaifligidan dalolat beradi. Narxlar ustidan samarali nazoratning yo'qligi sun'iy oshirish holatlariga hamda bozordagi spekulyatsiya xavfining kuchayishiga olib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror oʻsishi kuzatilmoqda, biroq tumanlar kesimida resurslardan foydalanish darajasida nomutanosiblik mavjud. Ayniqsa, Chust, Toʻraqoʻrgʻon va Yangiqoʻrgʻon tumanlarida ishlab chiqarish salohiyatining toʻliq safarbar qilinmagani aniqlanmoqda.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabi ishlab chiqarish hajmidan yuqori boʻlgan tumanlarda narxlarning keskin oshishi ichki bozor barqarorligini xavf ostida qoldirmoqda.

Logistika infratuzilmasi va omborxonalar sigʻimlari boʻyicha mintaqaviy tafovutlar oziq-ovqat mahsulotlarining oʻz vaqtida yetkazilmasligi va isrofgarchilikka uchrash xavfini kuchaytirmoqda. Xususan, sovitkichli transport vositalari va logistika markazlari soni ayrim hududlarda yetarli emas.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi oshib bormoqda, biroq eksport salohiyati barcha tumanlarda teng taqsimlanmagan. Chust, Toʻraqoʻrgʻon va Yangiqoʻrgʻon tumanlari tashqi bozorlarga chiqishda cheklangan imkoniyatlarga ega.

Oʻrtacha narxlar boʻyicha tumanlararo nomutanosibliklar mavjud boʻlib, bu bozorda raqobat muhitining notekisligidan darak beradi. Bu holat iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikka salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Takliflar:

- Hududlar kesimida oziq-ovqat ishlab chiqarishini muvozanatlashtirish maqsadida resurslar taqsimotini optimallashtirish, agroklastlar yaratish va kam faol hududlarda subsidiyalarni kengaytirish zarur.

- Mahsulotga boʻlgan talab yuqori boʻlgan tumanlarda ishlab chiqarish loyihalarini ragʻbatlantirish va ularni davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.

- Logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun tumanlar kesimida sovitkichli transport vositalari, omborxonalar va logistika markazlarini yaratishga qaratilgan maxsus hududiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

- Eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun mahsulotlarni xalqaro sifat talablariga mos ravishda standartlashtirish va sertifikatlashtirish markazlarini barcha tumanlarda joriy etish kerak.

- Narxlar ustidan davlat monitoringini kuchaytirish, chakana savdoni tartibga soluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va spekuliyativ narx oshishining oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish lozim.

- Raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarish, isteʼmol va taqsimot bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi integratsiyalashgan tizimlar ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Smith A. (1776). The Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Isard W. (1956). Location and Space Economy. Cambridge: MIT Press.
3. Friedman J. (1966). Regional Development Policy: A Case Study of Venezuela. Cambridge: MIT Press.

4. Vahobov A.V. (2018). Iqtisodiy xavfsizlik va oziq-ovqat siyosati. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. Qudratov Sh. (2020). “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hududiy strategiyalar”, Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №4, 45–52.
6. Toshkenbaeva Z. (2022). “Agrologistika infratuzilmasi va hududiy oziq-ovqat bozori”. Ilmiy-amaliy iqtisodiy tahlil jurnali, №1, 31–38.
7. FAO (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World. Rome: UN FAO.
8. North D.C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Rodrik D. (2008). One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton: Princeton University Press.
10. Barrett C.B. (2021). Food Security and Sustainability: Complex Global Challenges. Oxford: Oxford University Press.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2020-yil 29 oktyabr PF–6096-son “2020–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-noyabr PQ–5263-son,. “Oziq-ovqat sanoatini 2022–2026-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2020–2024). Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. www.stat.uz
14. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari eksporti bo‘yicha statistik ma’lumotlar. (2020–2024-yillar)
15. Mahalliy Iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi (2023). Namangan viloyatida oziq-ovqat tarmog‘i holati va rivojlanish istiqbollari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**